

INGLIZ TILI FONETIKASINI BOSHLANG'ICH BOSQICHLARDA O'QITISHDA QO'SHIQ VA QOFIYANING O'RNI

Oyturayeva Mavluda Bahodir qizi,

Termiz Davlat pedagogika instituti

xorijiy til va adabiyoti ingliz tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili fonetikasini boshlang'ich bosqichlarda o'qitishda qo'shiq va qofiyalarning didaktik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qo'shiq va ritmik matnlarning o'quvchilarning talaffuz, intonatsiya, urg'u va tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, fonetik kompetensiyani rivojlantirishda musiqiy materiallarning motivatsion va psixologik ta'siri ham ko'rib chiqilgan. Maqolada boshlang'ich bosqich o'quvchilari bilan ishlashda autentik qo'shiqlar va qofiyalardan foydalanish metodlari hamda ularning amaliy samaradorligi haqida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: fonetika, ingliz tili, qo'shiq, qofiya, talaffuz, intonatsiya, boshlang'ich ta'lim, fonetik kompetensiya, tinglab tushunish, ritm.

Аннотация. В данной статье анализируется роль песен и рифмовок в обучении фонетике английского языка на начальном этапе. Освещается значение музыкальных и ритмических материалов в формировании произношения, интонации, ударения и навыков аудирования у учащихся. Особое внимание уделяется мотивационному и психологическому воздействию песен при развитии фонетической компетенции. В статье также рассматриваются методы использования аутентичных песен и рифмовок в процессе обучения и их практическая эффективность в начальном обучении английскому языку.

Ключевые слова: фонетика, английский язык, песни, рифмовки, произношение, интонация, начальное обучение, фонетическая компетенция, аудирование, ритм.

Annotation. This article examines the role of songs and rhymes in teaching English phonetics at the elementary stage. The study highlights the importance of musical and rhythmic materials in developing learners' pronunciation, intonation, stress patterns, and listening comprehension skills. Particular attention is paid to the motivational and psychological effects of songs in the formation of phonetic competence. The article also discusses effective methods of using authentic songs and rhymes in primary English language teaching and evaluates their practical effectiveness in improving students' phonetic abilities.

Keywords: phonetics, English language, songs, rhymes, pronunciation, intonation, elementary education, phonetic competence, listening comprehension, rhythm.

Kirish. Zamonaviy xorijiy til ta'limida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bilan bir qatorda, o'quvchilarning fonetik kompetensiyasini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilini boshlang'ich bosqichlarda o'qitishda to'g'ri talaffuz, intonatsiya va ritmi shakllantirish keyingi til o'zlashtirish jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Til o'rganishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilar tovushlarni eshitish, farqlash va takrorlash orqali fonetik ko'nikmalarni egallaydilar. Shu sababli dars jarayonida tabiiy va qiziqarli metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ingliz tili darslarida interfaol va innovatsion metodlardan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Qo'shiq va qofiyalar ana shunday samarali vositalardan biri sifatida o'quvchilarning nafaqat talaffuzini yaxshilash, balki ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishda ham muhim rol

o'ynaydi. Musiqiy materiallar o'quvchilarda emotsional faollikni kuchaytiradi, til muhitini tabiiy shaklda yaratadi hamda fonetik birliklarni eslab qolishni osonlashtiradi. Ritm va ohang orqali o'quvchilar ingliz tilidagi tovush tizimini sezilarli darajada tezroq o'zlashtiradilar. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning eshitish xotirasi va taqlid qilish qobiliyati kuchli rivojlangan bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, qo'shiqlar va qofiyalar talaffuzni tabiiy tarzda shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilidagi urg'u, bog'lanishli nutq, intonatsion modellar va ayrim murakkab tovushlarni o'rgatishda ritmik materiallarning amaliy ahamiyati katta. O'quvchilar qo'shiq matnlarini takrorlash davomida fonetik xatolarni sezmasdan tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ingliz tili fonetikasini o'qitishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda musiqiy va ritmik vositalarning samaradorligini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot davomida qo'shiq va qofiyalarning boshlang'ich bosqich o'quvchilarida fonetik kompetensiyani shakllantirishdagi o'rni, ularning talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalariga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ingliz tili darslarida autentik qo'shiqlardan foydalanishning metodik asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xorijiy til fonetikasini o'qitishda musiqiy va ritmik vositalardan foydalanish masalasi ko'plab tilshunos va metodist olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ingliz tili fonetikasini samarali o'rgatishda eshitish va taqlid mexanizmlarining ustuvor ahamiyatga egaligi haqida D. Crystal, A. Kelly, J. Harmer kabi olimlarning ilmiy qarashlari muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning fikricha, fonetik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida tabiiy til muhiti va ritmik nutq namunalardan foydalanish o'quvchilarning talaffuz aniqligini oshiradi hamda nutqdagi tabiiylikni rivojlantiradi. J. Harmer xorijiy tilni o'qitishda qo'shiqlar o'quvchilarning tinglab tushunish va talaffuz malakalarini rivojlantirishda kuchli motivatsion vosita ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, qo'shiq orqali berilgan fonetik material oddiy matnga nisbatan osonroq esda qoladi, chunki ritm va musiqa xotira faoliyatini faollashtiradi. A. Kelly esa ingliz tili talaffuzini o'qitishda intonatsiya, urg'u va ritmning o'zaro bog'liqligini alohida qayd etib, qofiyali matnlarning fonologik sezgirlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Psixolingvistika yo'nalishidagi tadqiqotlarda ham musiqaning til o'zlashtirish jarayoniga ijobiy ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqotchilar bolalarda fonematik eshituvni rivojlantirishda qo'shiq va qofiyalar tabiiy akustik model vazifasini bajarishini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda qisqa ritmik matnlar va sodda qo'shiqlar orqali murakkab tovushlarni o'rgatish samarali natija beradi. Shu bilan birga, ritmik mashqlar o'quvchilarda nutq tezligi va intonatsion moslashuvni shakllantirishga yordam beradi. Mazkur tadqiqotda nazariy va amaliy metodlardan kompleks foydalanildi. Tadqiqotning nazariy qismida xorijiy va mahalliy metodist olimlarning fonetika, musiqiy pedagogika va kommunikativ metodika bo'yicha ilmiy ishlari tahlil qilindi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida qo'shiq va

qofiyalarning fonetik kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rnini o'rganildi. Amaliy qismda esa kuzatish, pedagogik tajriba va tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ingliz tili darslarida boshlang'ich bosqich o'quvchilari bilan qo'shiq va qofiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar kuzatildi hamda o'quvchilarning talaffuz, intonatsiya va tinglab tushunish ko'nikmalaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida autentik inglizcha bolalar qo'shiqlari, qisqa ritmik she'rlar va fonetik mashqlardan foydalanildi. Metodologik jihatdan tadqiqot kommunikativ yondashuv, audiolingval metod hamda interfaol ta'lim texnologiyalariga tayangan holda olib borildi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning fonetik birliklarni tabiiy nutq jarayonida o'zlashtirishiga imkon yaratdi hamda ingliz tilidagi tovush tizimini samarali egallashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida ingliz tili fonetikasini boshlang'ich bosqichlarda o'qitishda qo'shiq va qofiyalardan foydalanish o'quvchilarning talaffuz ko'nikmalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Kuzatishlar natijasida musiqiy va ritmik materiallardan muntazam foydalanilgan darslarda o'quvchilarning ingliz tilidagi tovushlarni farqlash, to'g'ri talaffuz qilish hamda intonatsion modellarni qo'llash darajasi yuqorilagini kuzatildi. Ayniqsa, /θ/, /ð/, /w/, /r/ kabi o'zbek tilida mavjud bo'lmagan tovushlarni o'zlashtirishda qo'shiq asosidagi mashqlar samaraliroq natija bergani qayd etildi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning darsdagi faolligi va motivatsiyasida ham sezilarli o'zgarish kuzatildi. An'anaviy fonetik mashqlarga nisbatan qo'shiq va qofiyalar asosidagi topshiriqlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otdi hamda ularning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytirdi. Musiqiy materiallar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar yangi so'z va tovushlarni tezroq eslab qolganlari aniqlandi. Ritm va takroriy strukturalar fonetik birliklarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam berdi. Kuzatish natijalariga ko'ra, qo'shiqlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar ingliz tilidagi tabiiy nutq tempiga moslashishni boshlaganlari ham aniqlandi. Ayniqsa, qisqa ritmik she'rlar va bolalar qo'shiqlari o'quvchilarning bog'lanishli nutqni tushunishiga yordam berdi. Darslarda "Head, Shoulders, Knees and Toes", "If You're Happy", "ABC Song" kabi autentik qo'shiqlardan foydalanilganda o'quvchilar tovushlarni nafaqat takrorladilar, balki ularni harakat va emotsiya bilan bog'lash orqali faolroq o'zlashtirdilar. Pedagogik tajriba davomida fonetik mashqlarni qo'shiq bilan integratsiya qilish o'quvchilardagi psixologik to'siqlarni kamaytirgani ham kuzatildi. Oddiy talaffuz mashqlarida xato qilishdan tortinadigan o'quvchilar qo'shiq kuylash jarayonida erkinroq harakat qildilar. Bu esa ularning talaffuzdagi ishonchini oshirdi hamda og'zaki nutq faoliyatini faollashtirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qo'shiq va qofiyalar boshlang'ich bosqichda ingliz tili fonetikasini o'qitishda samarali metodik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular o'quvchilarning fonetik kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, darsning interfaolligi va emotsional samaradorligini ham oshiradi.

Muhokama. Tadqiqot davomida olingan natijalar ingliz tili fonetikasini boshlang'ich bosqichlarda o'qitishda qo'shiq va qofiyalardan foydalanish yuqori metodik

samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Fonetik materiallarni ritm va ohang asosida o'zlashtirish o'quvchilarning tabiiy talaffuzni tezroq egallashiga yordam berdi. Ayniqsa, eshitish va takrorlashga asoslangan mashqlar bolalarning fonematik sezgirligini kuchaytirib, tovushlarni farqlash qobiliyatini rivojlantirdi. Bu esa ingliz tilidagi murakkab fonetik birliklarni o'zlashtirish jarayonini ancha yengillashtirdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, qo'shiq va qofiyalar nafaqat fonetik kompetensiyani shakllantirish, balki umumiy kommunikativ faollikni oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilar musiqiy materiallar bilan ishlash jarayonida darsga faolroq jalb qilindi, natijada ularning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishi ortdi. Emotsional muhitning ijobiy shakllanishi esa o'quvchilarning nutqiy erkinligini kuchaytirdi. Ayniqsa, talaffuzdagi xatolar uchun qo'ruqning kamayishi og'zaki nutqning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Fonetikani an'anaviy usullar orqali o'qitishda ko'pincha mexanik takrorlash ustunlik qiladi. Bunday yondashuv esa kichik yoshdagi o'quvchilarda zerikish holatini yuzaga keltirishi mumkin. Qo'shiq va qofiyalar asosidagi mashg'ulotlarda esa o'quvchi til materialini sun'iy emas, balki tabiiy va qiziqarli shaklda qabul qiladi. Ritm va musiqa til birliklarini xotirada uzoqroq saqlashga xizmat qiladi. Shu sababli musiqiy metodlar fonetik ko'nikmalarni barqaror shakllantirishda ancha samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi. Kuzatishlar davomida ayrim muammoli jihatlar ham aniqlandi. Ba'zi hollarda qo'shiqlarning juda tez tempi boshlang'ich bosqich o'quvchilari uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkinligi kuzatildi. Shuningdek, barcha qo'shiqlar ham metodik jihatdan fonetik maqsadga mos kelavermaydi. Shu sababli o'qituvchi material tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, til darajasi hamda fonetik ehtiyojlarini hisobga olishi zarur. Qo'shiq matnining sodda, ritmik va talaffuz jihatidan aniq bo'lishi samaradorlikni oshiradi. Muhokama natijalari qo'shiq va qofiyalarni ingliz tili fonetikasini o'qitish metodikasining tarkibiy qismi sifatida qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida musiqiy materiallar o'quvchilarning eshituv xotirasi, talaffuz aniqligi va intonatsion moslashuvini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv darsning samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini ham mustahkamlaydi.

Xulosa. Ingliz tili fonetikasini boshlang'ich bosqichlarda samarali o'qitish o'quvchilarning keyingi til kompetensiyasini shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari qo'shiq va qofiyalardan foydalanish fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Musiqiy va ritmik materiallar yordamida o'quvchilar talaffuz, urg'u, intonatsiya hamda tinglab tushunish ko'nikmalarini tabiiy va qiziqarli shaklda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qo'shiq va qofiyalar dars jarayonida emotsional ijobiy muhit yaratishi, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi hamda ularning nutqiy faolligini kuchaytirishi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, boshlang'ich yoshdagi o'quvchilarda taqlid qilish va eshitish xotirasi yaxshi rivojlanganligi sababli ritmik mashqlar fonetik materialni tezroq

o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, musiqiy metodlar o'quvchilardagi psixologik to'siqlarni kamaytirib, ingliz tilida erkinroq muloqot qilishga zamin yaratadi. Tadqiqot davomida autentik qo'shiqlar va qisqa qofiyali matnlar bilan ishlash o'quvchilarning talaffuz aniqligi va eshituv sezgirligini sezilarli darajada rivojlantirgani aniqlandi. Bu esa fonetik kompetensiyani shakllantirishda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda interfaol va innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida ingliz tili darslarida qo'shiq va qofiyalardan tizimli foydalanish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish hamda yosh va til darajasiga mos autentik materiallarni tanlash ta'lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralganda, qo'shiq va qofiyalar boshlang'ich bosqichda ingliz tili fonetikasini o'qitishning muhim metodik vositalaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The Practice of English Language Teaching. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – 5th ed. – London: Pearson Education Limited, 2015.
2. How to Teach English. Harmer J. How to Teach English. – Harlow: Pearson Longman, 2007.
3. How to Teach Pronunciation. Kelly G. How to Teach Pronunciation. – Harlow: Longman, 2000.
4. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
5. Techniques and Principles in Language Teaching. Larsen-Freeman D. Techniques and Principles in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2011.
6. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Brown H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – New York: Pearson Education, 2007.
7. Approaches and Methods in Language Teaching. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
8. Music and Song. Murphey T. Music and Song. – Oxford: Oxford University Press, 1992.
9. English Phonetics and Phonology. Roach P. English Phonetics and Phonology. – 4th ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. "Xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirishga oid me'yoriy hujjatlar va metodik tavsiyalar". – Toshkent, 2023.